

Andijon viloyatining Demografik holati

2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025 yilning 1 aprel holatiga Andijon viloyatidagi doimiy aholisi soni **3 474,1** ming kishini tashkil etib, 2024 yilning 1 aprel holatiga nisbatan **1,9** foizga ko'paygan. 2025 yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni **17,7** ming nafarni, vafot etganlar **4,1** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **13,6** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga jami ko'chib kelganlar soni **1,9** ming kishini va ko'chib ketganlar soni **2,4** ming kishini qayd etilgan, nikohlar **3,1** mingtani, nikohdan ajralishlar **1,2** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	3 474,1	ming kishi
Tug'ilganlar soni	17,7	ming kishi
Vafot etganlar soni	4,1	ming kishi
Ko'chib kelganlar	1,9	kishi
Ko'chib ketganlar	2,4	kishi
Nikohlar soni	3,1	ming birlik
Nikohdan ajralishlar soni	1,2	ming birlik

II. Doimiy aholi soni


Andijon viloyatida doimiy aholi soni 2025 yil 1 aprel holatiga ko'ra **3 474,1** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **65,1** ming kishiga yoki **1,9** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **1 814,0** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **52,1** %), qishloq joylarda esa **1 660,1** ming kishi (**47,8** %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 714,1** ming kishini (**49,3** %), erkaklar esa **1 760,0** ming kishini (**50,7** %), tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi (1-aprel holatiga, ming kishi)

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	3 409,0	3 474,1	101,9
Andijon sh.	483,9	495,0	102,3
Xonobod sh.	45,9	46,7	101,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	192,6	194,7	101,1
Andijon	287,5	294,2	102,3
Baliqchi	216,7	220,9	101,9
Bo'ston	78,2	80,0	102,3
Buloqbohi	153,6	156,4	101,8
Jalaquduq	199,5	202,7	101,6
Izboskan	256,3	261,2	101,9
Ulug'nor	63,9	64,4	100,8
Qo'rg'ontepa	231,2	235,2	101,7
Asaka	356,5	363,4	101,9
Marhamat	187,1	190,6	101,9
Shahrixon	325,9	332,5	102,0
Paxtaobod	209,6	213,3	101,8
Xo'jaobod	120,6	122,9	101,9

Andijon viloyatida 2025 yil 1 aprel holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **807,9** kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024 yilda ushbu ko'rsatkich **792,8** kishini, 2020 yilda esa ushbu ko'rsatkich **730,2** kishini tashkil etgan.

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **17,7** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **20,7** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **1,3** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **4,1** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,8** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,3** ming nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatimizda tirik tug'ilganlar soni **17,7** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **9,1** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,5%**), qiz bolalar soni **8,6** ming kishini (**48,5%**) va shahar joylarida **9,6** ming kishini (**54,5%**), qishloq joylarida **8,1** ming kishini (**45,5%**) tashkil etdi.

Viloyatimizda vafot etganlar soni **4,1** ming kishini, shundan erkaklar **2,2** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **54,2%**), ayollar **1,9** ming kishini (**45,8%**) va shahar joylarida **2,2** ming kishini (**54,4%**), qishloq joylarida **1,9** ming kishini (**45,6%**) tashkil qildi.


Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi



IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni **3,1** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **3,7** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,5** ming birlikka kamaygan.


Nikohdan ajralishlar soni **1,2** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,4** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan o'zgarmagan.



Viloyatimizda qayd etilgan nikohlar soni **3,1** ming birlikni, shundan shahar joylarida **1,5** ming birlikni (**48,3%**), qishloq joylarida **1,6** ming birlikni (**51,7%**) tashkil etdi.

Viloyatimizda nikohdan ajralishlar soni **1,2** ming birlikni, shundan shahar joylarida **0,7** ming birlikni (**57,4%**), qishloq joylarida **0,5** ming birlikni (**42,6%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-mart oylarida viloyatimizda bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **1 941** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **1 941** kishini tashqil etgan, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar mavjud emas.

Ko'chib ketganlar jami soni **2 402** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **2 391** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **11** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Andijon viloyati	1 941	1 941	0	2 402	2 391	11
Andijon sh.	410	410	0	592	582	10
Xonobod sh.	83	83	0	58	57	1
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko'l	101	101	0	105	105	0
Andijon	423	423	0	227	227	0
Baliqchi	61	61	0	114	114	0
Bo'ston	57	57	0	51	51	0
Buloqboshi	59	59	0	124	124	0
Jalaquduq	66	66	0	160	160	0
Izboskan	90	90	0	137	137	0
Ulug'nor	3	3	0	71	71	0
Qo'rg'ontepa	116	116	0	167	167	0
Asaka	50	50	0	151	151	0
Marhamat	52	52	0	110	110	0
Shahrixon	98	98	0	131	131	0
Paxtaobod	78	78	0	125	125	0
Xo'jaobod	194	194	0	79	79	0

Jinslar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
A. Saidmaxmudov
74 228-80-00 (6070)

Manzil:
